

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-5  
OMON MATJON LIRIKASIDA PERIFRAZ VA GRADATSIYANING  
QO'LLANISHI**

**Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi** - Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuksak qalam sohibi Omon Matjon ijodida qo'llangan, zamonaviy she'riyatda uchraydigan she'riy san'atlardan biri – perifraz shoir she'riyati misolida tahlil asosida yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Omon Matjon, she'riyat, tahlil, majoz, ikkinchi nom, perifraz.

Ma'lumki, teran fikr, idrok va ilhom sohibi bo'lgan ijodkorlar hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga oddiy yondashmasdan ularni chuqur tahlil qilgan holda o'z xotira omborlariga joylaydilar. Ular bu omborda saqlanayotgan hodisalarni tasvirlashda ham yuqorida aytilganidek shunchaki yondashib emas, balki o'zlarining qalb ko'zlari bilan his qiladilar. Bu jarayonga shoir yoki yozuvchi ko'rilgan holatga o'z ichki kechinmalaridan kelib chiqib baho beradi va uni obrazli tarzda ifodalaydi. O'z-o'zidan ko'rinadiki, ular bu ifodalash, tasvirlash jarayoniga turli xil shaxs, joy, narsa-predmetga majoziy xarakter yuklab, unga qaytadan ikkinchi nom beradi. Ijodkorlarning o'z estetik ideallaridan kelib chiqib mavjud narsa-hodisalarga qaytadan nom ato qilishi perifrazni yuzaga keltiradi.

Ushbu atamaga adabiyotshunoslikka doir atamalarda turlicha izoh berilgan bo'lib, xususan, adabiyotshunos To'xta Boboyevning "Adabiyotshunoslik asoslari" darsligida unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Perifraz (yunon. peri – atrof. phrasis – so'zlayman) – majozlarning bir turi – nutqning ifodaviyligini oshirish maqsadida predmet, odam, voqea-hodisalar nomini ularning ma'nolarini, xususiyatlarini ifodalovchi so'z yoki iboralar bilan almashtirish usuli[1:349]". Shu bilan birgalikda, ushbu atama Dilmurod Quronovning "Adabiyotshunoslik lug'ati"da: "Perifraz(a) – narsa-hodisa, joy yoki shaxsni o'z nomi bilan emas, unga xos tavsifiy belgilarni ifodalovchi so'z birikmasi bilan atash; mohiyatan ko'chimga yaqin turadi[2:222]", - deya tavsiflanadi. Fikrimizcha, perifraz mazmunan ko'chim turlaridan metaforaga yaqin tursa-da, uning farqli jihatlari mavjud. Uning metaforadan farqli jihati shundaki, metaforada faqat o'xshatilgan birlik beriladi, perifrazda esa o'z ma'nosida qo'llangan so'z bilan uning xususiyatlarini o'zida mujassam etuvchi o'z yoki ko'chma ma'nodagi so'z beriladi, u

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-5**

bu jihati bilan tasviriy ifodaga yaqin turadi. Shu jumladan, shoir Omon Matjon ijodida ham ushbu tasvir vositasining yorqin namunalarini uchratishimiz mumkin:

O'zbekiston – jannat ustaxonasi,  
Ne-ne buyuk insonlarning Onasi,  
Senga boqib jahon ko'zi yonasi,  
Ko'zim yo'lda, ko'nglim yorda shu kunlar,  
Menda zo'r bir g'urur bor-da shu kunlar[3:10].

Bu she'riy parchada O'zbekiston "jannat ustaxonasi" deya tasvirlangan bo'lib, bu orqali perifraz vujudga kelgan. Bilamizki, ko'pgina shoirlar diyorimizni jannatmakon go'shaga qiyos etadilar, biroq ijodkor bu qiyosni yana-da boyitadi, ya'ni endilikda u nafaqat jannatosa o'lka, balki barcha jannatga o'xshash yurtlarning ichida o'mak bo'lishga arzirlisi, jannat yaratuvchisidir.

Yurtimizda mavjud ikki daryo: Amudaryo va Sirdaryoning o'zani Orol dengiziga borib quyilishi barchamizga birdek ma'lum. Quyida keltirilgan she'riy parchada shoir perifrazaning yorqin namunasini qo'llaydi: she'rda Orol – ikki zo'r daryoning aziz Ka'basi, deya tilga olinadi, ya'ni barcha musulmon shaxslar Ka'bani ziyorat qilgani kabi ikki daryo o'zani ham Orol dengizi tomon yo'l olib, unga borib quyiladi:

Tarixning ne yana bizga zardasi,  
Munglar tutashdi torning pardasi,  
Ikki zo'r daryoning aziz Ka'basi –  
Oroldan uzildi barcha yo'l endi,  
Orolim, qurima,  
Orol, to'l endi[3:17].

Omon Matjon qalamiga mansub ushbu misralarda ham perifraz ishtirok etgan:

Ko'kdan yerga bir ne tutash ko'rinar,  
Umr – o'z burchingni o'tash ko'rinar.  
"Avlodlar almashar" degan gap bekor,  
Bu – har kimni bir-bir sinash ko'rinar[4:20].

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-5**

Banda umrga nisbatan “o‘z burchingni o‘tash” birikmasini qo‘llash orqali perifraz yuzaga kelgan. Ushbu misralar falsafiy mazmun kasb etgan bo‘lib, unda shoir Omon Matjon insonni hayot atalmish sinovda bo‘lishini, bu dunyo sinov maydoni bo‘lib, har kimni birma-bir imtihon qilinishini, odamga bu umr shu sinovlardan o‘tib, o‘z burchini o‘tashi, ya’ni umri davomida ezgu amallarni qilib, savob olishini ta’kidlar ekan, shu bilan birgalikda, kishiga hech bir gunoh o‘zgan o‘tmaydi, inson hech qachon ajdodlari qilgan qilmishlari uchun jazolanmaydi, aksincha ularning har biri bir-bir sinaladi, degan fikrni ko‘ndalang qo‘yadi.

Samovot – bir juldur dasturxon,

Somon yo‘li unda qand yuqi.

Tunda va’da etar oltin non

Yulduzlarning so‘nggi qo‘shig‘i[4:97].

Keltirilgan she’riy parchada samovotni juldur dasturxon deb nomlash orqali perifraz yuzaga kelgan bo‘lib, shoir uning vositasida tabiat tasvirini go‘zal ifodalab bergan.

Muvozanat mezon butun borliqqa,

Bersa – qaytib olmay qo‘ymaydi!

“Qizil kitob” – najot elchisi bo‘lsa,

Yetti unga ko‘p gap yozmoqning payti![5:10]

“Tabiatning “Qizil kitob”iga” deb nomlangan ushbu she’rda “Qizil kitob”ni najot elchisi sifatida tasvirlash orqali perifraz vujudga kelgan bo‘lib, ijodkorning uni qo‘llashdan maqsadi shundan iboratki, bu kitobga kundan kunga yo‘qolib borayotgan mavjudotlar kitiladi, shoir shuning uchun ham uni najot elchisi deb ataydi. She’rni boshdan oyoq o‘qir ekansiz, bir narsaga guvoh bo‘lasiz: o‘lib borayotgan xilqatni muhofaza qiluvchi “Qizil kitob”ga shoir DO‘STLIK, E’TIQOD, UDUM, ASAB, YURAK kabi insoniylikdan darak beruvchi tuyg‘ularni ham qo‘shib qo‘yadi. Bu bejizga emas, albatta. Rivojlanib borayotgan zamonamizda soat sayin yo‘qotilib borilayotgan narsalarning o‘rnini to‘ldiruvchi turli xil kashfiyotlar ishlab chiqilmoqda. Bu she’r orqali shoir shuni demoqchiki, yo‘qotilgan buyumning, borinki, biror hayvonning o‘rnini boshqasi bilan to‘ldirish mumkin, biroq kishilarning bir-biriga bo‘lgan do‘stligi, qallda yo‘qotilayotgan e’tiqod, ajdodlarning boy merosidan darak beruvchi udum, kishida barcha tuyg‘ularga debocha bo‘ladigan yurakning o‘rnini nima bilan to‘ldirish mumkin? Shularni himoya qilish kerak aslida.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-5**

Omon Matjon she'rlarini birma-bir ko'zdan kechirar ekanmiz, perifrAZga oid ko'plab misralarga duch kelamiz. Shu jumladan, shoir qalamiga mansub ushbu she'riy parchada bu tasvir vositasidan o'rinli foydalanilgan:

Samarqand – ko'kyolqin minorlar yurti,  
Azaliy yashillik – chinorlar yurti,  
She'rga, ipak to'rga xummorlar yurti,  
Nafas qil, osmonni peshtoqqa qoldir,  
Bulbulni manguga butoqda qoldir![5:20]

Keltirilgan bandeda Samarqandga ko'kyolqin minorlar yurti deb ta'rif berish orqali perifrAZdan foydalanilgan.

Aytdim, bir ertakda tangri taolo  
O'lkamizdan olgan jannatga ulgi.  
Behishtiy mevalar, obi hayot – suv,  
Samoviy maqomlar – bari ming yilgi[6:256].

Jannatmakon yurtimizning ta'rif-u tavsifiga bag'ishlangan ushbu she'rda suvni obi hayot deb atash orqali perifrAZ qo'llangan va bu perifrAZning o'z ma'nosida qo'llangan turiga misol bo'la oladi.

Shu jumladan, shoir ijodida uchrovchi yana bir san'at borki, ijodkor o'zining ruhiy holatini yorqin ifodalashda ushbu tasvir vositasiga tayanib ish ko'radi. Bu poetik figuralardan biri gradatsiya bo'lib, "Adabiyotshunoslik asoslari" kitobida unga shunday ta'rif berilgan:

Gradatsiya(lot. Gradatio – zinapoya) – tasvir obykti (ma'nosi)ning misradan misraga (so'zdan so'zga) o'tgan sari kuchayib borishini ifodalovchi so'zlar (o'ziga xos gap tuzilishi)[1:428]. Ushbu poetik figura ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi: biri klimaks hisoblansa, ikkinchi guruhni antiklimaks tashkil etadi. Bu ikki ko'rinish bir-biriga qarama-qarshi ma'no anglatib, klimaksda misradagi tasvir obykti ma'nosi yoxud hissiyotlar oqimi kuchayib borsa, antiklimaksda aksincha, susayib, kamayib boradi. Shoir Omon Matjon qalamiga mansub ushbu she'riy parchada ham klimaks qo'llangan:

Shu tilni o'ylagim keladi,

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-5**

Shu tilda so‘ylagim keladi.

Sukunat – shoirning so‘zlari.

Ayta...

Olmay...

Ketgan...

So‘zlari[6:41].

Ko‘rinadiki, berilgan parchada fikr qaratilgan birlik, ya’ni tasvir obyektini ifodalovchi birlik sukunat so‘ziga urg‘u berilar ekan, uning ma’nosini izohlovchi so‘zlar misradan misraga ko‘chirilishi orqali undagi kechinma kuchayib bormoqda.

Bibixonim!

Bibixonim!

Sening siniq imoratingni,

Oyday kuyuk muhabbatingni

To‘ldirib hislarim, ko‘zlarim bilan,

Oy qilib otayin osmonga,

Kun qilib otayin osmonga,

Bibixonim[5:21].

Bu she’riy parchada tasvir obyektini misradan misraga o‘tgan sayin she’rda mavjud ehtiros oqimi kamayib boradi hamda she’rning obrazli va ifodalliligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon ijodining obrazlilik va emotsionalligini taminlab berishda perifrazlarning o‘rni beqiyos. Shoir qo‘llagan perifrazlarning har biri she’riyatga o‘ziga xos yangilik bo‘lib qo‘shildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Gradatsiya hodisasi esa kamdan kam ijodkorning she’riyatida uchrovchi topilma hisoblanadi. Bu ham ijodkorning badiiy mahoratidan dalolat beruvchi omildir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. To‘xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.– T.: “O‘zbekiston”, 2002.
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik lug‘ati.– T.: “Akademnashr”, 2010.
3. Omon Matjon. O‘rtamizda birgina olma. – T.: “Yosh gvardiya”, 1990.
4. Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-5**

5. Omon Matjon. Yonayotgan Daraxt. – T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1997.
6. Omon Matjon. Seni yaxshi koʻraman. – T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1981.

